

BO'LAJAK O'QITUVCHILAR UCHUN CHET TILLARNI O'QITISH METODIKALARI

F. Abdurahmonova¹

Annotatsiya:

Kishilik jamiyatining asosiy tayanchi bo'lmish muloqot qurishda til bilish nihoyatda katta o'rin egallaydi. Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchi va pedagoglar uchun o'quvchi va talabalarga chet tillarini o'rgatish jarayonida foydali bo'ladigan metodlar va interfaol usullar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: chet tili, muloqot, metod, metodika, interfaol usul.

doi: <https://doi.org/10.2024/ykrqpp81>

Hozirgi davrda ko'plab xojiriy davlatlar singari mamlakatimizda ham chet tillarga bo'lgan talab kundan kunga sezilarli darajada ortib bormoqda. Xalqaro aloqalar avj olayotgan bir davrda ko'p tillilik muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o'z navbatida hukumatimizga mamlakatimiz o'quvchi va talabalariga chet tillarini o'qitish va samarali ta'lim berishdek ustuvor vazifa yuklamoqda. Bu borada mamlakatimizda keng chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Avvalambor ushbu sohada bilimli va malakali kadrlar yetishib chiqishi asosiy vazifa hisoblanadi. Mamlakatimizda pedagog o'qituvchilarning bor e'tiborini samarali ta'lim berishga qaratish muhim hisoblanganligi bois Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2024-yil 1-fevral kuni "Pedagogning maqomi to'g'risida" gi Qonuni imzoladi. Shuningdek Ta'lim to'g'risidagi qonunga ko'ra hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish doirasida chet tillarga o'qishning kompleks tizimi, ya'ni uyg'un kamol topgan, o'qimishli yoshlarni ulg'aytirish jahon hamjamiyatiga yanada integratsiyalashuviga yo'naltirilgan tizim yaratildi. Mustaqillik yillarida 51,7 ming nafardan ziyod chet tillar o'qituvchilari tayyorlandi [3]. Ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar zahirida chet tillarini uzluksiz o'rganishni ta'minlash, zamonaviy pedagogil va axborot texnologiyalar bilimiga ega professional kadrlar, rivojlangan mamlakatlar talabiga javob bera oladigan kasbiy malakali kadrlarni tayyorlash, chet tilaarini o'rganish tizimiga raqamli texnologiyalarni joriy etish, ta'lim sifatlarini yaxshilashdek asosiy maqsadlarga yo'naltirilgan. Mamlakatimizda ta'lim an'anviy tarzda amalga oshirilib kelinmoqda. Zamonaviy interfaol fikrlaovchi yoshlani yetishtirishda jarayonida o'qituvchi va pedagoglarning vazifasi o'ta muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ko'p tillilik hozirgi jadal rivojlanayotgan davrda nihoyatda muhim jihatlardan biri hisoblandi. Muloqot vositasi bo'lmish tilni tabiiy ravishda ya'ni oilada, jamoatchilik orasida yoki uyushgan holatda amaliy egallash mumkin. Til hodisalariga oid ilmlarni nazariy tarzda o'rgatilmoqda. Mamlakatimizda ta'lim olayotgan o'quvchi yoshlar hamda talabalar uchun hozirda uch til o'rgatilib kelinmoqda. Ushbu tillar esa maxsus nomlar bila yuritiladi. Ular quyidagicha nomlanadi; ona tili, ikkinchi til va chet tilidir. Ona tili bu tafakkur shakllanishida

¹*Abdurahmonova Farangiz Oybek qizi, Samarqand davlat chet tillar instituti 2-bosqich talabasi*

alohida xizmat qiluvchi birinchi til hisoblanadi. Ikkinchi til haqida so'z yuritilganda, unga boshqa millat vakillaridan iborat qardoshlar, qo'shni tili sifatida qaraladi [5].

Chet tili – ona tili bo'lmagan xorijiy mamlakat tilidir. Respublikamizda G'arbiy Yevropa(ingliz, ispan, nemis, fransuz) tillari va Sharq (arab, turk, fors, xitoy, hind) tillari o'qitilib kelinmoqda. Uchala tilni o'qitish jarayoni turlicha kichadi. ona tili hamda ikkinchi til tabiiy tarzda, chet tili esa sun'iy tarzda o'rgatiladi[4]. Chet tilini o'qitish qolgan ikki tilni organishdan ko'ra keskin farq qiladi. Bu jarayon sun'iy muhitda o'rgatilganligi bois tegishlicha chet tilini o'qitish texnaloyiga va dasturlarini taqazo etadi. Chet tilini o'qitish bu muloqot ya'ni o'qituvchi rahbarligida tarzida olib boriladi.

O'qituvchi va o'quvchi talabalar o'rtasida muloqotni to'g'ri tashkil qilish uchun turli metodlar hamda interfaol usullardan foydalanish samarili bo'lib kelmoqda. Metod- (yunonchadan olingan bo'lib, metodos – bilish yoki tadqiqot yo'li, nazariya ta'limot) voqealikni amaliy va nazariy egallash, o'zlashtirish, o'rganish, bilish uchun yo'l yo'riqlar, usullar majmuasi hisoblanadi. Metodlarni yaxshi egallagan kishi biror ishni boshqa kishilarga nisbatan osonroq va tezroq bajarish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ta'limda metodlar yig'indisi metodologiya fanini keltirib chiqaradi.

Insonning jismoniy va aqliy qobiliyatlaridan kelib chiqib ular ma'lumotlarni turli darajada saqlab qolishi malum boladi. Tadqiqotlar natijasida ma'lum bo'lishicha inson ma'lumotni o'zi o'qiganida 10 foiz, ma'lumotni tinglaganda 20 foiz, voqea yoki hodisani ko'rganda 30 foiz, voqea yoki hodisani ko'rganda hamda ular haqida axborot yoki ma'lumot tinglaganda 50 fozi, ma'lumot uzatganda 80 fozi, olgan bilimlarini amalda qo'llaganda esa 90 foiz ma'lumotni saqlab qolish ya'ni yod olish qobiliyatlariga ega ekanligi ma'lum bo'di. Zamonaviy ta'lim tizimida chet tillini o'qitish jarayonida g'arb pedagogikasida bo'lajak o'qituvchilarni professional-kommunikativ malakalarini shakllantirishga yordam beruvchi metodlari quyidagilardan iboratdir:

1. Grammatika tarjima metodi
2. To'g'ridan- to'g'ri o'zlashtirish metodi.
3. Audio-lingual metodi.
4. Umumiy jismoniy nazariyalar metodi.
5. Kommunikativ til o'rganish metodi.
6. Vazifalarga asoslangan til o'rganish metodi.
7. Sugestopedia metodlari [1].

1. Grammatika tarjima metodi - bu 19-asrda Yevropada keng qo'llanilgan metodlardan biri hisoblanadi. Ushbu metod grammatik qoidalarni va o'rganilayotgan chet tili lug'arlarni o'rganishga asoslangan metod hisoblanadi. Bu metodning asosiy maqsadlaridan biri bu talabaning bir tildan ikkinchi bir tilga tarjima qila olish qobiliyatidir.

2. To'g'ridan-to'g'ri o'zlashtirish metodi - 19-asr oxiri 20-asr boshlarida Fransiya hamda Germaniyada vujudga kelgan metod hisoblanadi. Bu metodni yaratuvchilarning fikriga ko'ra o'rganish jarayoni namoyish hamda harakatlarga asoslangan bo'lsa tarjimalarsiz hamda ona tiladan foydalanmagan holda o'zlashtirish mumkin deya ta'kidlaydilar. Ushbu metodda dars jarayonida faol holatda o'zlashtirilgan, analitik protseduralar ya'ni grammatik qoidalarni tushuntirishdan ko'ra afzal ko'riladi.

3. Audio-lingual metodi - Ikkinchi Jahon Urushi davrida va undan keyin chet tilini og'zaki va eshitish qobiliyatiga ega bo'lish zarurati natijasida paydo bo'ldi. Ushbu metod takrorlash va odatlanish kabi elementlar bilan

chambarchas bog'liqdir. Bu usulda yozish hamda o'qishdan farqli ravishda tinglash hamda og'zaki qobiliyatlarga asoslangan o'quv jarayoni hisoblanadi.

4. Umumiy jismoniy nazariyalar metodi - 1960-yilda Jemes Asher tomonidan kashf qilingan. Bu metod psixologik nazariyalarga asoslanib, tilni o'rganish uchun vosita harakatlarining birlashmasi rag'batlantirilganda xotira kuchayadi. Bu esa nutq va harakat o'rtasidagi muvofiqlashtirishni anglatadi. Metod turli o'yinga boy harakatlarni o'z ichiga oladi, stressni kamaytiradi va o'quvchilar orasida ijobiy kayfiyat yaratadi. Bu metod orqali og'zaki nutqdagi ravonlikni hech qanday og'zaki nutq qoida va ko'rsatmalarini o'rgatadi.

5. Kommunikativ til o'rganish metodi - Richard hamda Rogerslarning ma'lumotiga ko'ra bu metod yaratilishida mashhur tilshunoslar Firth va Hallidaylarning hissiy katta ekanligi aytib o'tilgan. Ushbu metosning asosiy ahamiyati talabalar va o'quvchilarning chet tilini turli xil vaziyat va kontekstda qo'llay olishdan iboratdir. Bunda ular til funksiyalariga alohida e'tibor berib, til aloqa vositasi sifatida foydalanish bo'yicha tegishli ko'nikmalarni egallashadi.

6. Vazifalarga asoslangan til o'rganish metodi - 1987-yilda Prabhu tomonidan yaratilgan. Ushbu metodda tilni rasmiy tizim sifatida emas balki muloqot vositasi sifatida tahlil qilishdan nimani o'rganish kerakligini aniqlashga harakat qiladi. Bunda tilni o'rganishda turli vazifalar qo'llaniladigan yondashuvga asoslanadi.

7. Sugestopedia metodi - Bulgariyalik psixolog Georgi Lozano tomonidan kasf qilingan. Bu metod Sugestologiyadan kelib chiqqan. Sugestopedia endu eskirgan bo'lsada, yondashuvning ba'zi elementlari hanuzgacha saqlanib qolgan. Metodda ijobiy taklif o'quvchini yanada sezgir qiladi va ma'lum darajada o'rganishni rag'batlaniradi.

Xulosa qilib aytganda, ko'rishimiz mumkinki chet tiliga bo'lgan talab shiddatli ravishda oshib borayotgan bir davrda, bo'lajak o'qituvchilarning dars jarayonini puxta o'zlashtirib, ushbu bilimlarini o'quvchi yoshlarga yetkazishida turli zamonaviy metodlar hamda interfaol usullar muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir o'z kasbini sevuvchi o'qituvchilar darsni tashkil etishda uni qiziqarli hamda samarali bo'lishida shu kabi zamonaviy metodlar juda ham qo'l kelishini bilishadi. Bu kabi interfaol usullar asosida olib borilgan dars mashg'ulotlari esda qolarli bo'ladi va o'quvchi yoshlar ham noodatiy dars mashg'ulotlarini ham afzal ko'radilar. Bu esa o'z navbatida o'quvchilar orasida ilmga, bilimga bo'lgan chanqoqlikni yanada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1]. "Different methodologies teaching English" (2014) Paul Silles (9-21)
- [2]. "Methods of teaching English" Mrs.Susmita, Dr.S.Harichandan, Dr. Supriya Deka
- [3]. Matkarimova N. (2023) "Bo'lajak pedagoglarini kasbiy faoliyatga tayyotlashning mexanizimi (Чем мullaр мусолуда)" Oriental Renaissance; Innovative, educational, natural and social sciences. ISSN; 2181-1784 2
- [4]. Rabbimova Sh. (2022) "Chet tili o'qitish metodikasi". Tafakkur manzili ISSN; 2180-2160
- [5]. Sanaqulov Z. Jo'raboyev B. (2021) "Chet til o'qitish metodikasida zamonaviy metodlar". Academic Research in Educational Sciences (2)
- [6]. Xusanova D. (2023) "Metod va metodika haqida tushuncha" Междуродный научный журнал "Новости образования в XXI веке".